
ALIMENT TO'LOVCHILARNING CHET ELGA CHIQISHIGA OID TAQIQNI OLIB TASHLASH TARTIBI QANDAY?



↗ Davlat ijrochisi qarori asosida aliment to'lovchilarning xorijga chiqishi vaqtincha cheklanishi mumkin.

↗ Alimentlar oldindan to'langan yoki bu bo'yicha garov shartnomasi tuzilgan bo'lsa xorijga chiqishga oid cheklov

olib tashlanadi.

↗ Alimentlarni oldindan to'lash 5 yildan kam bo'lmagan muddatga amalga oshirilishi kerak.

↗ Bolalar voyaga yetgunigacha bo'lgan davr 5 yildan kam bo'lsa, alimentlarni oldindan to'lash qolgan davr uchun amalga oshiriladi.

↗ Alimentni to'lashni garov bilan ta'minlash uchun ariza sudga taqdim qilinadi.

↗ Garov qiymati BHMning 250 baravaridan (75 mln. so'mdan) kam bo'lmasligi lozim.

↗ Har qanday mol-mulk (avtomobil, do'kon, uy-joy, kvartira) garov bo'lishi mumkin.

Majburiy ijro byurosi So'x tumani bo'limi

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2022-09-13 16:59:52